

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA PSIXOLINGVISTIKA VA YOSH TADQIQOTCHILARNING UNGA MUNOSABATI

Ayubjonova Shodiya Ayubjon qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Umida Abdurahim qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda psixolingvistikaning o'rnini va ahamiyati yoritiladi. Psixolingvistikaning asosiy xususiyatlari hamda til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh tadqiqotchilarning mazkur fanlararo yo'nalishga bo'lgan qiziqishi va munosabati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari psixolingvistikaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, zamonaviy tilshunoslik, til va tafakkur, fanlar integratsiyasi, yosh tadqiqotchilar, lingvistik tadqiqot, kommunikativ jarayon.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение психолингвистики в современной лингвистике. Анализируются основные особенности психолингвистики и взаимосвязь языка и мышления. Также изучается интерес и отношение молодых исследователей к данному междисциплинарному направлению. Результаты исследования подчеркивают важность психолингвистики для дальнейшего развития лингвистики.

Ключевые слова: психолингвистика, современная лингвистика, язык и мышление, интеграция наук, молодые исследователи, лингвистическое исследование, коммуникативный процесс.

Abstract. This article examines the role and significance of psycholinguistics in modern linguistics. The main features of psycholinguistics and the relationship between language and thought are analyzed. In addition, the interest and attitudes of young researchers toward this interdisciplinary field are considered. The findings highlight the importance of psycholinguistics in shaping the future development of linguistic studies.

Keywords: psycholinguistics, modern linguistics, language and thought, interdisciplinary integration, young researchers, linguistic research, communicative process

Kirish. Psixolingvistika zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan globalizatsiya davrida ushbu yo'nalishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, yosh tadqiqotchilar psixolingvistika orqali tilni chuqurroq anglashga intilmoqdalar. Nutq va ong orasidagi aloqa, tovush va ohang orqali anglash va tushunish — bularning barchasi, albatta, o'quvchining diqqatini jalb qiladi. Ushbu maqolada psixolingvistikaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rnini va yosh tadqiqotchilarning unga bo'lgan munosabati tahlil qilinadi.

Tahlil va muhokama. Psixolingvistika tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, inson tafakkurining mahsuli sifatida o'rganadi. Insonning ichki his-tuyg'ularining tilda aks etishi, nutqdagi ohang o'zgarishlari kabi kichik, ammo katta farq yaratuvchi hodisalar ushbu fan yo'nalishida tahlil qilinadi. Psixolingvistika tilning inson tomonidan qanday o'zlashtirilishi, qayta ishlanishi va hosil qilinishini o'rganadi [Field, 2003]. Ya'ni, har bir inson ongi tilni turlicha idrok qiladi. Ayni jumla turli ohanglarda talaffuz

qilinganida, inson tafakkuri u ohangni farqli qabul qilishi va turli munosabat bildirishi mumkin.

— Sen kelding. (oddiy ohang)	Inson uchun oddiy fakt holatida qabul qilinadi.
— Sen kelding?! (Hayrat ohang)	Tinglovchi o'zini kutilmagan mehmondek his qiladi.
— Sen kelding!! (Jahldor ohang)	Tanbeh yoki norozilik seziladi. Inson salbiy qabul qiladi.
— Sen kelding! (Mamnun ohang)	Iliqlik va xursandlik bor. Inson o'zini qadrlangan his qiladi.

Ohang kabi gapda ma'noning turlanishiga sabab bo'luvchi yana bir misol so'zlovchining yuz ifodasidir. Insonning yuz holati ham nutq mazmunini tushinishda muhim rol o'ynaydi. Bir xil jumla turli mimika bilan ifodalanganda inson ongi uni turlicha qabul qiladi. Bu esa psixolingvistikada verbal va noverbal vositalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bu holat psixolingvistikaning keng qamrovli fan ekanligining isbotidir. U tilning barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tilshunoslikda tobora ko'proq psixolingvistika kabi fanlararo yondashuvlarga tayanmoqda [Crystal, 2010]. Aytishimiz mumkinki, tilshunoslik endi faqat qonun-qoidalar bilan cheklanmayapti, balki insonning tilni qanday qabul qilishi va ishlatishini ham o'rganmoqda. Bu holat tilshunoslikning kundan kunga rivojlanayotganini ko'rsatadi, chunki u boshqa fanlar bilan uyg'unlashib bormoqda.

Psixolingvistikadagi innovatsion usullar ko'pincha faoliyatini endi boshlayotgan tadqiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Yosh tadqiqotchilar nafaqat mavjud nazariyalarni tahlil qiladi, balki til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarga yangicha yondashuvlarni ham olib kiradi. Bugungi kunda yosh tadqiqotchilar tilni o'rganishda fanlararo yondashuvlarga tayanib, psixologiya, nevrologiya va lingvistika kesishgan nuqtalarda yangi ilmiy natijalarga erishmoqdalar. Buning isboti sifatida, Steven Pinker yosh tadqiqotchi sifatida tilning biologik asoslari borligini ilmiy asoslab berdi. MIT tadqiqotchisi Evelina Fedorenko yosh olimlardan bo'lib, miya va til o'rtasidagi bog'liqlikni fMRI orqali o'rganib, til uchun maxsus miya tizimlari borligini ko'rsatdi. Michael Tomasello "Constructing a Language" asari bilan bolalar tilni qanday o'zlashtirishini ijtimoiy kognitiv yondashuv orqali tushuntirdi. Bu yangi yo'nalish sifatida qabul qilindi. Faoliyatini endi boshlagan bunday tadqiqotchilar orasida kognitiv va fanlararo yondashuvlarga qiziqishning ortishi psixolingvistikaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda [Traxler, 2012]. Yosh avloddagi bunday muvaffaqiyatlar, albatta, kelajakda psixolingvistika yanada chuqurlashuvi va kengayishidan dalolat beradi.

Xulosa. Psixolingvistika zamonaviy tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Inson ongi va nutqi orasida kuchli bog' mavjud. Bu bog'ning xususiyatlarini tahlil qilmoq, albatta, yosh tilshunoslarning vazifasidir. Psixolingvistikaning rivojlanishi ilm-fan sohasida yangi yondashuvlar va metodlarni joriy etishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Field, J. (2003). Psycholinguistics: A resource book for students. Routledge.
2. Crystal, D. (2010). The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Traxler, M. J. (2012). Introduction to psycholinguistics: Understanding language science (2nd ed.). Wiley-Blackwell.